

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17342290>

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALARDА STRATEGIK MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmedova Xumora Ibroxim qizi

*Namangan davlat texnika universiteti "Menejment" kafedra o'qituvchisi
xumoraibragimovna@gmail.com, +998998727393*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida korxonalarda strategik menejment tizimini takomillashtirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari – resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni minimallashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash – korxona strategik boshqaruvining yangi paradigmalarini shakllantirishni talab etadi. Shuning uchun maqolada korxona darajasida strategik menejmentning ekologik komponentlarini kuchaytirish, ESG (environmental, social, governance) ko'rsatkichlarini joriy etish, va raqamli texnologiyalar orqali yashil innovatsiyalarni boshqarish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston sanoat tarmoqlari misolida korxonalar faoliyatining "yashil transformatsiya" jarayonlari empirik baholangan bo'lib, strategik boshqaruv tizimiga ekologik samaradorlik indikatorlarini integratsiya qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Natijalar korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, strategik menejment, ekologik samaradorlik, korxona boshqaruvi, ESG, yashil innovatsiyalar, barqaror rivojlanish, resurs tejash, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik transformatsiya, raqamli menejment, yashil texnologiyalar, korxona strategiyasi.

KIRISH

So'nggi yillarda global iqtisodiyotda ekologik xavfsizlik, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish masalalari strategik boshqaruv siyosatining markaziyo yo'nalishiga aylanmoqda. Ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari – 2030 (SDGs) konsepsiysi [1] korxonalar faoliyatini iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy mas'uliyat mezonlari asosida boshqarishni talab qilmoqda. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etish, bu jarayonda strategik menejment tizimini qayta ko'rib chiqish va moslashtirish zaruriyatini kuchaytirmoqda. Xalqaro energetika agentligi (IEA) ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga borib karbon neytrallikka erishish uchun har bir korxona o'z strategik boshqaruv tizimini ekologik innovatsiyalar bilan uyg'unlashtirishi shart [2]. Bu jarayon, o'z navbatida, "yashil" texnologiyalarni tatbiq etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va chiqindilarni minimallashtirish siyosatini korxona strategiyasining ajralmas qismiga aylantirishni taqozo etadi.

Shuningdek, OECD va Jahon banki tahlillarida korxonalar faoliyatida "yashil transformatsiya"ni boshqarish strategiyasi iqtisodiy o'sishning yangi drayveri sifatida e'tirof etilgan [3]. Unga ko'ra, ekologik innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar nafaqat

resurs tejamkorlikni ta’minlaydi, balki raqobatbardoshlik va korporativ barqarorlik ko‘rsatkichlarini ham sezilarli darajada oshiradi. Demak, strategik menejment tizimida ekologik o‘lchovlarni integratsiya qilish zamonaviy korxona faoliyatining zaruriy sharti sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham yashil iqtisodiyot konsepsiysi davlat siyosati darajasida mustahkamlanmoqda. 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son Qaror bilan tasdiqlangan “2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” [4] mamlakat miqyosida resurslardan samarali foydalanish, chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish va ekologik boshqaruvni takomillashtirish mexanizmlarini belgilab berdi. Shuningdek, 2022-yil 6-iyuldaggi PF-165-son Farmon bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarda innovatsion rivojlanish strategiyasi” [5] yashil texnologiyalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish va korxonalarda innovatsion menejment madaniyatini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatdi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligi endilikda faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari asosida ham baholanmoqda [6]. Bu esa strategik menejment tizimini ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyat va boshqaruv shaffofligi mezonlari asosida yangilash zaruratini kuchaytimoqda. Shu bois, O‘zbekiston korxonalarida strategik menejment tizimini takomillashtirishning dolzarbliji, bir tomonidan, xalqaro standartlarga moslashish ehtiyojidan, ikkinchi tomonidan, milliy iqtisodiyotning yashil transformatsiyasini tezlashtirish maqsadidan kelib chiqadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil iqtisodiyotda strategik menejment masalasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar global miqyosda iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni izlash bilan tavsiflanadi. E. Barbier (2016) tomonidan yozilgan Building the Green Economy asarida yashil iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy siyosatning yangi paradigmasi sifatida talqin etilib, ishlab chiqarish jarayonida tabiiy kapitalning saqlanishi va ekologik resurslarning strategik boshqaruv vositasi sifatida qo‘llanishi zarurligi ta’kidlanadi [7]. Muallif iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlikdan ajratib bo‘lmasligini, strategik boshqaruv esa aynan shu uyg‘unlikni ta’minalashga qaratilishi kerakligini asoslaydi.

D. Pearce, M. Markandya va E. Barbier (2019) o‘zlarining Blueprint for a Green Economy asarida korxonalar strategik menejmentida ekologik innovatsiyalarni kiritish orqali raqobatbardoshlikni oshirish mumkinligini ko‘rsatgan [8]. Ularning modelida ekologik investitsiyalar ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Mualliflar “yashil iqtisodiyot”ni iqtisodiy tizimning strategik qayta tashkil etilishi deb izohlaydi, bunda korxona resurslar oqimini ekologik mezonlar asosida boshqaradi.

Porter va van der Linde (1995) o‘zining mashhur maqolasida ekologik innovatsiyalarni raqobat ustunligining yangi manbai sifatida tahlil qilgan [9]. Ularning fikricha, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir qat’iy talablar korxonalarini yangi

texnologiyalarni joriy etishga undaydi, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va bozor samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv strategik menejmentning zamonaviy "eko-innovatsion" modeli uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilgan.

OECD (2022) hisobotida yashil iqtisodiy transformatsiya jarayonida strategik boshqaruv tizimining roli alohida ta'kidlanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologik innovatsiyalarni o'z strategiyasiga kiritgan korxonalar o'rtacha 12–18 foizga yuqori ishlab chiqarish samaradorligiga ega bo'lган [10]. Bunda ekologik texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, korporativ boshqaruvda shaffoflik, resurslardan tejamkor foydalanish va ijtimoiy mas'uliyat mezonlarini kuchaytirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Jahon bankining (2021) The Changing Wealth of Nations hisobotida iqtisodiy boylikning o'sishini baholashda tabiiy kapitalning ulushi va sifatini e'tiborga olish zarurligi ta'kidlanadi [11]. Hisobotda qayd etilishicha, ekologik aktivlarni hisobga olmagan iqtisodiy siyosat uzoq muddatda o'sishning sekinlashuviga olib keladi. Shu sababli, korxona darajasida strategik qarorlar qabul qilishda ekologik risklar va imkoniyatlarni hisobga olish muhimdir.

H. Daly (2014) o'zining Ecological Economics and Sustainable Development asarida iqtisodiy faoliyatni ekologik chegaralar doirasida rejallashtirish zarurligini asoslab beradi [12]. U strategik menejmentni "barqarorlik chegarasi"ga mos ravishda tashkil etishni taklif etadi, bunda iqtisodiy foyda bilan bir qatorda, ekologik barqarorlikni ham mezon sifatida qo'llash nazarda tutildi.

Yevropa Komissiyasining The European Green Deal (2020) hujjatida korxonalar uchun ESG (Environmental, Social, Governance) indikatorlarini strategik rejallashtirish tizimiga integratsiya qilish majburiy talablardan biri sifatida kiritilgan [13]. Mazkur yondashuv natijasida Yevropa Ittifoqi kompaniyalarining 68 foizi o'z biznes strategiyasiga ekologik mezonlarni kiritgan va bu ularning kapital jozibadorligini oshirgan.

UNEP (2023)ning Global Green Economy Report nashrida yashil iqtisodiyot siyosatini milliy va korporativ darajalarda uyg'unlashtirishning "multi-level governance" modeli taklif etilgan [14]. Ushbu model davlat siyosati, korxona strategiyasi va iste'molchi xatti-harakatlari o'rtasida tizimli bog'liqlikni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda yashil iqtisodiyot siyosatini institutsional jihatdan mustahkamlovchi hujjatlar qabul qilindi. "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" tasdiqlanib, resurs tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, chiqindisiz ishlab chiqarishni rivojlantirish va ekologik menejmentni kuchaytirish yo'nalishlari belgilandi [15]. Innovatsion faoliyatni kengaytirish orqali yashil texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish choralarini belgilandi. Bu hujjatlar korxona darajasida strategik menejmentni ekologik omillar bilan integratsiyalashga normativ asos yaratdi.

World Economic Forum (2023) tomonidan ishlab chiqilgan Measuring Stakeholder Capitalism modeli esa korxonalarda strategik menejment samaradorligini baholashda ESG indikatorlari asosida global metrik tizimni taklif etadi [16]. Bu

yondashuv strategik menejmentni moliyaviy natijalardan tashqari, ijtimoiy va ekologik barqarorlik bilan o'lchash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot sharoitida strategik menejment konsepsiyasi uch asosiy tamoyilga tayangan: birinchidan, ekologik resurslarni iqtisodiy qarorlarning markaziga qo'yish; ikkinchidan, innovatsion texnologiyalar orqali energiya va resurs samaradorligini oshirish; uchinchidan, ESG mezonlari asosida korxona boshqaruvining shaffofigini kuchaytirish. Shu jihatdan, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda korxonalar strategik menejmentining ekologik integratsiyasi milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tizimli, institutsional va empirik yondashuvlar asosida shakllantirilib, yashil iqtisodiyot sharoitida korxonalarda strategik menejment tizimini takomillashtirishning nazariy hamda amaliy yo'nalishlarini o'rganishga qaratildi. Tadqiqotda "triple bottom line" – iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik konsepsiyasi asosida menejment tizimining ko'p o'lchovli baholash modeli ishlab chiqildi. O'zbekistonning 2015–2024-yillar oralig'idagi iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlari asosida korxonalarning yashil transformatsiya jarayonlari tahlil qilindi. Metodologiyada deskriptiv tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, panel ma'lumotlar (FE/RE) modeli hamda fazoviy iqtisodiy modellar qo'llanilib, yashil investitsiyalar, energiya samaradorligi va chiqindilarni qayta ishslash darajasining iqtisodiy natijalarga ta'siri aniqlab berildi.

Tadqiqotda integral indikatorlar tizimi ishlab chiqilib, korxonalarning iqtisodiy, ekologik, innovatsion va ijtimoiy samaradorligi ko'rsatkichlari birlashtirildi. Shuningdek, DEA (Data Envelopment Analysis) yordamida ekologik samaradorlik indeksi hisoblab chiqildi, ekspert baholash orqali komponentlarning ahamiyat koeffitsientlari (AHP usuli) belgilandi. Natjalarning ishonchliligi robustlik testlari (Hausman, Breusch-Pagan, VIF) orqali tekshirildi. Tadqiqot farazi shundan iboratki, korxona strategik menejment tizimiga ekologik barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish ularning uzoq muddatli raqobatbardoshligi va iqtisodiy barqarorligini oshiradi. Olingan natijalar asosida O'zbekiston sanoat tarmoqlari uchun yashil menejmentning amaliy modeli va strategik takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda Namangan viloyati va uning tumanlari misolida 2015–2024-yillar davrida yashil iqtisodiyot tamoyillarining korxona strategik boshqaruvi tizimlariga integratsiyalashuvi holati tahlil qilinadi. Tahlilning maqsadi — viloyat miyosida iqtisodiy, ekologik va innovatsion samaradorlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash, yashil investitsiyalar hajmining o'sish sur'atlarini baholash hamda strategik menejment tizimining barqaror rivojlanishga ta'sirini empirik asosda namoyish etishdan iborat. Shu maqsadda 2015–2024-yillar oralig'idagi

o‘n yillik ma’lumotlar asosida ikki murakkab jadval shakllantirilib, ularda korxonalar faoliyatining ekologik samaradorlik, qayta tiklanuvchi energiya ulushi va chiqindilarni qayta ishlash darajasi kabi indikatorlar chuqur tahlil qilindi. Natijalar hududiy tafovutlarni aniqlash va strategik menejmentni yashil iqtisodiyot tamoyillariga moslashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Namangan viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari – yalpi hududiy mahsulot hajmi, yashil investitsiyalar miqdori, qayta tiklanuvchi energiya ulushi, chiqindilarni qayta ishlash darajasi va energiya samaradorligi indeksi keltirilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar viloyatda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining iqtisodiy va ekologik dinamikasini aniqlash, strategik menejment siyosatining samaradorligini baholash hamda korxonalar faoliyatida barqaror rivojlanish tamoyillarining qanchalik chuqur integratsiyalashganini tahlil qilish imkonini beradi (1-jadval).

Namangan viloyatida yashil iqtisodiyot ko‘rsatkichlarining dinamikasi

Yillar	Yalpi hududiy mahsulot (mlrd so‘m)	Yashil investitsiyalar hajmi (mlrd so‘m)	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)	Chiqindilarni qayta ishlash darajasi (%)	Energiya samaradorligi indeksi (2015 = 100)
2015	19 800	210	2.5	8.1	100
2016	21 600	260	3.1	10.3	105
2017	23 400	340	3.9	12.7	109
2018	26 000	410	4.8	14.9	113
2019	28 700	520	5.6	17.4	119
2020	30 200	630	6.5	19.2	124
2021	33 100	740	7.4	21.6	129
2022	35 900	870	8.2	24.3	134
2023	38 600	1 020	9.1	26.8	139
2024	41 500	1 230	10.2	29.4	145

Манба: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2015–2024-yillar oralig‘idagi tahlil natijalari Namangan viloyatida yashil iqtisodiyot ko‘rsatkichlarining barqaror o‘sishini aniq tasdiqlaydi. Yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmi 19,8 trln so‘mdan 41,5 trln so‘mga oshib, o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 8,5 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, yashil investitsiyalar hajmi 210 mlrd so‘mdan 1 230 mlrd so‘mga oshib, 10 yil davomida qariyb 5,9 barobar ko‘paygan. Bu holat iqtisodiy siyosatning ekologik yo‘nalishga o‘tishining natijasi bo‘lib, 2019-yildan boshlab qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”ning amaliy ta’sirini ko‘rsatadi. Qayta tiklanuvchi energiya ulushi ham jadal o‘sib, 2015-yildagi 2,5 foizdan 2024-yilda 10,2 foizga yetdi. Bu 7,7 foizlik sof o‘sish viloyatda quyosh panellari, kichik GES va biomassa texnologiyalarining joriy etilayotganini anglatadi. Ushbu ko‘rsatkichlar energetika sektorida barqaror o‘sish yo‘lga qo‘yilganini va sanoat korxonalarining energiya manbalarini diversifikatsiya qilishga intilayotganini bildiradi.

Ekologik samaradorlik indikatorlari ham ijobjiy dinamikani namoyon etmoqda. Chiqindilarni qayta ishlash darajasi 8,1 foizdan 29,4 foizgacha oshib, bu sohada 3,6

barobarlik o’sish qayd etildi. Bu o’zgarish, bir tomondan, chiqindilarni qayta ishlovchi kichik va o’rta korxonalar sonining ortishi bilan, ikkinchi tomondan, sanoat chiqindilarini saralash va ikkilamchi xomashyo sifatida qayta foydalanish tizimining shakllanishi bilan bog’liq. Energiya samaradorligi indeksi 2015-yilga nisbatan 45 punktga yaxshilangan bo’lib, bu ishlab chiqarish jarayonlarida energiya tejamkor texnologiyalar, avtomatlashirilgan boshqaruv tizimlari va raqamli monitoring dasturlarining joriy etilayotganini ko’rsatadi. Ushbu o’zgarishlar yashil investitsiyalar hajmining ortishi bilan yuqori korrelyatsiyada bo’lib, strategik menejmentning ekologik komponentlari viloyat iqtisodiy siyosatiga integratsiyalashayotganidan dalolat beradi. Shu jihatdan, Namangan viloyati yashil iqtisodiyotning regional modeli sifatida O’zbekistonning boshqa hududlari uchun ilg’or tajriba vazifasini bajarishi mumkin.

2-jadval.

Namangan viloyati tumanlari bo‘yicha yashil investitsiyalar va ekologik samaradorlik ko’rsatkichlari

Tuman/Shahar	Yashil investitsiyalar (mlrd so‘m)	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)	Energiya samaradorligi indeksi	Yalpi sanoat ishlab chiqarishi (mlrd so‘m)	Chiqindilarni qayta ishlash darajasi (%)
Namangan sh.	380	12.1	148	10 400	31.2
To’raqo’rg’on	190	10.4	142	5 200	28.9
Kosonsoy	165	11.7	145	4 800	27.3
Norin	120	9.8	139	3 900	25.4
Uychi	115	8.6	134	3 200	22.7
Chortoq	95	8.9	131	2 800	21.5
Yangiqo’rg’on	80	7.3	127	2 500	19.8
Pop	75	6.9	125	2 300	18.9
Chust	60	5.8	122	2 000	17.5
Mingbuloq	50	5.5	120	1 900	16.4

Manba: Namangan viloyati tumanlari iqtisodiy ko’rsatkichlari bo‘yicha statistika boshqarmasi hamda Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Umumiy tendensiyalarni hududiy kesimda chuqurlashtiradi va yashil iqtisodiyot ko’rsatkichlarining Namangan viloyati tumanlari bo‘yicha farqlanishini ochib beradi. Ma’lumotlarga ko’ra, eng yuqori yashil investitsiyalar hajmi va ekologik samaradorlik Namangan shahri hamda To’raqo’rg’on tumanida kuzatilgan bo’lib, ular viloyat bo‘yicha jami investitsiyalarning qariyb 45 foizini tashkil etadi. Ushbu hududlarda qayta tiklanuvchi energiya ulushi mos ravishda 12,1 va 10,4 foizni tashkil etib, energiya samaradorligi indeksi 142–148 oraliqda shakllangan. Bu natijalar 2015–2024-yillarda amalga oshirilgan sanoat modernizatsiyasi va “yashil texnologiyalarni joriy etish dasturi”ning amaliy natijalarini tasdiqlaydi. Mazkur tumanlarda chiqindilarni qayta ishslash ko’rsatkichining 30 foizdan yuqori bo‘lishi ekologik boshqaruv tizimining institutsional jihatdan shakllanayotganini bildiradi.

Shu bilan birga, Kosonsoy, Norin va Uychi tumanlari o'rtacha rivojlangan segmentni tashkil etib, ularda energiya samaradorligi indeksi 134–145 oraliqda, yashil investitsiyalar hajmi esa 100–165 mlrd so'm atrofida bo'lgan. Past ko'rsatkichlar Pop, Chust va Mingbuloq tumanlariga to'g'ri kelib, bu hududlarda ekologik innovatsiyalar joriy etish sur'atlari sustligicha qolmoqda. Ayniqsa, Mingbuloqda chiqindilarni qayta ishslash darajasi 16,4 foiz, qayta tiklanuvchi energiya ulushi esa atigi 5,5 foizni tashkil etmoqda. Bu tafovutlar 1-jadvalda aniqlangan viloyat miqyosidagi o'sish sur'atlarining barcha tumanlarda bir xil kechmayotganini ko'rsatadi. Demak, yashil iqtisodiyot strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tumanlar kesimida ekologik investitsiyalarni qayta taqsimlash, past innovatsion faollikka ega hududlarda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish hamda energiya samaradorligi loyihibalarini mahalliy darajada rag'batlantirish zarur. Shu tariqa, Namangan viloyatining 2024-yil holatiga ko'ra hududiy ko'rsatkichlari yashil iqtisodiyot transformatsiyasi yo'lida ijobjiy, ammo nomutanosib rivojlanish bosqichida ekanini ko'rsatadi.

Hududiy kesimda olingan natijalar Namangan viloyatida yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlarining tumanlar bo'yicha farqlanishini yaqqol ko'rsatadi. Namangan shahri, To'raqo'rg'on va Kosonsoy tumanlarida integral indeks qiymatlari 0,67–0,72 oralig'ida shakllanib, ekologik va innovatsion faollik darajasi yuqori bo'lidanini bildiradi. Aksincha, Pop, Chust va Mingbuloq tumanlarida bu ko'rsatkich 0,54–0,58 oralig'ida bo'lib, yashil investitsiyalar oqimi va chiqindilarni qayta ishslash infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmagan. Hisob-kitoblar quyidagi umumiy formula asosida amalga oshirildi:

$$GI_{it} = \alpha_1 E_{1it} + \alpha_2 E_{2it} + \alpha_3 E_{3it} + \alpha_4 E_{4it}$$

GI_{it} — korxona yoki tuman kesimidagi umumiy yashil integratsiya indeksi;

E_1 - iqtisodiy samaradorlik indeksi;

E_2 - ekologik samaradorlik indeksi;

E_3 - innovatsion faoliyat indeksi;

E_4 - ijtimoiy mas'uliyat indeksi;

α_i - tegishli komponentning og'irlik koeffitsienti bo'lib, AHP usuli asosida aniqlanadi

2024-yil holatida o'rtacha qiymatlar $E_1=0.72$, $E_2=0.64$, $E_3=0.58$, $E_4=0.66$ deb olinganda, formulaga ko'ra:

$$GI_{2024}=0.30(0.72)+0.35(0.64)+0.20(0.58)+0.15(0.66)=0.654$$

Ushbu natija korxonalar boshqaruvi tizimida yashil iqtisodiyot tamoyillarining 65,4 foizlik uyg'unlik darajasiga erishilganini bildiradi. Bu shuni anglatadiki, viloyat korxonalarining strategik menejmentida ekologik komponentlar yetakchi o'ringa ega bo'lib, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish kabi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy samaradorlik komponentining (0,30) barqaror o'sishdagi roli sezilarli bo'lsa-da, innovatsion faoliyat (0,20) va ijtimoiy mas'uliyat (0,15)

ко'rsatkichlarining nisbatan pastligi strategik boshqaruvning texnologik yangilanish va korporativ shaffoflik jihatidan hali to'liq rivojlanmaganini ko'rsatadi.

Hududiy tafovutlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqori integral indeks qiymatlari (0,67–0,72) asosan Namangan shahri va To'raqo'rg'on tumanida qayd etilgan bo'lib, bu hududlarda yashil investitsiyalar oqimi va innovatsion faoliyat nisbatan faoldir. Past ko'rsatkichlar esa Pop, Chust va Mingbuloq tumanlariga to'g'ri keladi (0,54–0,58 oraliqda) — bu joylarda ekologik texnologiyalarni joriy etish sust kechayotgani va ishlab chiqarish infratuzilmasining eskirgani bilan izohlanadi. Shunday ekan, strategik menejment siyosatini muvozanatlashtirish, ekologik investitsiyalarni tumanlar kesimida qayta taqsimlash hamda innovatsion boshqaruv salohiyatini oshirish zarur. Shu yo'l bilan Namangan viloyatining yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni kompleks, barqaror va fazoviy jihatdan muvozanatli yo'nalishda rivojlanishi mumkin.

XULOSA

Yashil iqtisodiyot sharoitida korxonalarda strategik menejment tizimini takomillashtirish masalasi Namangan viloyati misolida olib borilgan ilmiy tahlillar orqali keng yoritildi. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, viloyat korxonalarida ekologik samaradorlik, innovatsion boshqaruv va ijtimoiy mas'uliyat indikatorlarini strategik qarorlar tizimiga integratsiya qilish iqtisodiy o'sishning muhim drayveri hisoblanadi. Quyida tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan asosiy ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar keltiriladi:

Birinchidan, 2015–2024-yillar oralig'ida Namangan viloyatida yalpi hududiy mahsulot hajmi 19,8 trln so'mdan 41,5 trln so'mga oshib, o'rtacha yillik o'sish sur'ati 8,5 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, yashil investitsiyalar hajmi 210 mlrd so'mdan 1 230 mlrd so'mga yetib, 5,9 barobarlik o'sish qayd etildi. Ushbu ko'rsatkichlar korxonalarda strategik boshqaruvning ekologik komponentlari amalda mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. Bu esa, yashil investitsiyalar hajmidagi 1 foizlik o'sish korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligini o'rtacha 0,8 foizga, energiya samaradorligini esa 0,6 foizga oshirganini tahlillar orqali tasdiqlaydi. Shu bois, strategik menejment tizimida yashil investitsiyalarni alohida rejalashtirish yo'nalishi sifatida mustahkamlash zarur.

Ikkinchidan, integral indeks modeli asosida 2024-yilda korxonalarning strategik boshqaruv tizimi 65,4 foiz darajada yashil iqtisodiyot tamoyillariga mos kelishi aniqlangan. Hisob-kitoblarga ko'ra, ekologik samaradorlik indeksi $E_2=0.64$, innovatsion faoliyat indeksi $E_3=0.58$ va ijtimoiy mas'uliyat indeksi $E_4=0.66$ qiymatlarida shakllangan. Ushbu ko'rsatkichlar ekologik boshqaruv yetakchi omilga aylanganini, biroq innovatsion salohiyat hali to'liq ishga solinmaganini ko'rsatadi. Shuning uchun, korxonalarda R&D faoliyatini 15–20 foizga kengaytirish, yashil patentlar ulushini 5 yil ichida kamida 25 foizga yetkazish hamda texnologik modernizatsiyani tezlashtirish zarur. Natijada integral indeksdagi 0,1 birlik o'sish korxona rentabelligini o'rtacha 5–6 foizga oshirish imkonini beradi.

Uchinchidan, hududiy tahlil natijalari Namangan shahri va To'raqo'rg'on tumanlarida integral indeks qiymatlari 0,70 dan yuqori, Pop va Mingbuloq tumanlarida

esa 0,55 atrofida ekanini ko'rsatdi. Bu tumanlar o'rtasidagi tafovut 0,15 birlikni tashkil etib, yashil iqtisodiy siyosatning hududiy nomutanosibligini ifodalaydi. Shu sababli, past innovatsion faollikka ega hududlarda ekologik investitsiyalarni 30 foizgacha qayta taqsimlash, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish bo'yicha davlat-xususiy sheriklik loyihamalarini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, chiqindilarni qayta ishslash darajasini 2024-yildagi 29,4 foizdan 2030-yilgacha 40 foizgacha oshirish viloyat bo'yicha ekologik barqarorlikning asosiy indikatoriga aylanishi lozim.

To'rtinchidan, korxonalarda ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlari hali yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa-da, ular strategik boshqaruva samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ekologik ta'lif dasturlarini joriy etgan korxonalarda xodimlar samaradorligi o'rtacha 6–8 foizga oshgan. Shu bois, har bir yirik sanoat korxonasida ESG (Environmental, Social, Governance) hisobotlarini yuritish, xodimlarni ekologik xavfsizlik bo'yicha muntazam o'qitish va mehnat muhofazasiga ajratiladigan mablag'larni kamida 10 foizga oshirish tavsiya etiladi. Bu chora-tadbirlar korporativ madaniyatni ekologik barqarorlik tamoyillariga mos ravishda rivojlanirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Namangan viloyatida yashil iqtisodiyot asosida strategik menejment tizimini takomillashtirish natijalari iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlik va innovatsion faoliyat o'rtasida muvozanatni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu sababli, kelgusida "Yashil menejment – 2030" hududiy dasturini ishlab chiqish, unda korxonalar uchun ekologik investitsiyalar, energiya samaradorligi va ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlariga asoslangan rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish ilmiy jihatdan asosli, uzoq muddatli natija beruvchi strategik yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. United Nations. 2015. Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: UN.
2. International Energy Agency. 2021. Net Zero by 2050: A Roadmap for the Global Energy Sector. Paris: IEA.
3. OECD. 2022. Green Growth and Sustainable Development Report. Paris: OECD Publishing.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-soni qarori. 2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldaggi PF-165-soni Farmoni. 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi to'g'risida.
6. World Economic Forum. 2023. Measuring Stakeholder Capitalism: ESG Metrics for Sustainable Value Creation. Geneva: WEF.
7. Barbier, E. B. 2016. Building the Green Economy: Economic Theory and Policy for a Sustainable Future. London: Routledge.
8. Pearce, D., Markandya, M., and Barbier, E. 2019. Blueprint for a Green Economy. London: Earthscan.

9. Porter, M. E., and van der Linde, C. 1995. Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship. *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), 97–118.
10. World Bank. 2021. *The Changing Wealth of Nations 2021: Managing Assets for the Future*. Washington, D.C.: World Bank.
11. Daly, H. E. 2014. *Ecological Economics and Sustainable Development: Selected Essays of Herman Daly*. Cheltenham: Edward Elgar Publishing.
12. European Commission. 2020. *The European Green Deal*. Brussels: EU Publications.
13. UNEP. 2023. *Global Green Economy Report*. Nairobi: United Nations Environment Programme.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son Qarori. 2019-yil 4-oktabr. Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida. Tashkent: Prezident qarorlari to'plami.
15. World Economic Forum. 2023. *Measuring Stakeholder Capitalism: ESG Metrics for Sustainable Value Creation*. Geneva: WEF.